

Nazora BEKOVA,
 filologiya fanlari nomzodi, dotsent

NAVOIY IJODIDA GUL BADIY TIMSOL SIFATIDA

(Shoirning forsiy merosi misolida)

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy forsiy tilida ham ijod qilgan mumtoz san'atkor edi. Uning forsiy qasidalari, g'azal, ruboiy, marsiyalari badiiy so'z ustalari, shoir-u fozillar va xalq orasida ham shuhrat qozongan. Shoir bu she'rlarini yig'ib, "Devoni Fony" nomi bilan alohida kitob tuzgan. Ushbu maqolada mazkur devon tarkibiga kirgan "Sittai zaruriya" qasidalar turkumidagi gul timsollarini xususida so'z yuritiladi. "Sittai zaruriya"da rayhon, sunbul, nargis, lola, yosmin kabi gul timsollari orqali oshiq ahlining ko'nglida porlagan ilohiy nur va uning turli shakllarda jilva qilishiga ishora qilinadi. Jumladan, gul ma'shuqa jamoli, Haq tajalliyisi timsoli sifatida ishlatiladi.

*Bunafsha bar girehi turra bast marg'ula,
 Suman ba jilva darovard orazi zebo.¹*

Mazmuni: binafsha yoqasi (giriboni) atrofida qo'ng'iroqchalar bog'ladi (gulladi). Suman go'zal orazini jilvaga soldi.

Jilva – tasavvufiy istiloh bo'lib, noz, istig'no yoxud suluk ahlining ko'nglida porlagan ilohiy nur. Suman – saman. Yosmin so'zining qisqargani. Rayhon, sunbul, nargis kabi gullar ham tashxis san'ati vositasida mahorat bilan tasvirlangan:

*Zi nisfi po'sti noranj bahri nargisi sho'x,
 Piyola kardiyu o' mast gasht be sahbo.*

Mazmuni: sho'x nargis uchun yarimta noranj (apel-sin)ning po'stidan piyola qildingki, u qadahsiz ham mast bo'ldi. (12-bet)

Nargis – bo'tako'z, ko'zning ramzi, ya'ni ko'z mushabbih, nargis – mushabbihun bih. «Nargisi sho'x» iborasi sho'x nargis ko'zli go'zallarga nisbat beriladi.

Fikrimizni ulug' shoirning turkiy tildagi bir bayti orqali asoslaymiz:

*Ikki o'tlug' nargisingkim qildilar bag'rim kabob,
 Biridir ayni xumor ichinda biri masti xob.²*

Hazrat Navoiy qalamiga mansub bu baytda Olloh, olam va odam go'zalligi ifodalangan, ya'ni ma'shuqaning nargis ko'zlaridan oshiqning bag'ri-dili kabob bo'lgan, chunki ma'shuqaning ko'zlarida Yaratganning tajalliyisi bor. Ko'z – basirat darajasi, qalb ko'zining o'tkirligi, qolaversa, oshiqni imtihon etuvchi, sinovdan o'tkazuvchi kuchdir. Ilohiy jamol turli ko'rinishlarda jilonanib, qalba yo'l izlaydi. G'aybning manbayi, sir-u si-noat chashmasi ko'z – jilo, mavj, tovlanish, sehr-u jodu, maftunkorlik timsoli. Shuning uchun har ikki baytda ham (ya'ni qasidada va g'azaldan olingan baytda) «xumor», «mast» kabi so'zlar ishlatilgan.

Mazkur ramz tuzilish asosi jihatidan to'la-to'kis mushabbihning tarkibiy qismaliga to'g'ri keladi va bu o'xshashlik asosida kuchli mantiq bor. Qasidada rayhon boshqa gul timsollaridan alohida ajratiladi:

*Chu chand ro'z bar in raft, dodi oroish,
 Zi shohidoni rayohin ba gulshani dunyo...*

Mazmuni: bir necha kun shu tariqa (Sen) oroyish berding, rayhonlar shohidligida dunyo gulshaniga. (14-bet)

Mazkur baytda rayhon insonga xos «shohidlik» xususiyatini kasb etgan. Chunki tasavvufiy qarashlarga ko'ra rayhon tasfiya va riyozat natijasida qalbda porlagan nur timsolidir. «Shohid» so'zini ham shoir bejiz ishlatmagan, ya'ni shohid – qalb bilan tenglashgan mavjudot. Baytdagi «gulshan» so'zi esa qalbning fathi va ochilishi, solik ko'nglining ma'rifikat va irfonga to'lishi timsoli bo'lib kelgan.

*Ruxi chamanro az xomai qazo kardi,
 Zi lavn-lavn rayohin chu gunagun debo.*

Mazmuni: taqdir qalami bilan chaman ruhini (Sen) rang-barang bo'yoqlar bilan ziynatlangan rayhonzorga aylantirding. (16-bet)

Shoirning maqsadi tashxis (hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga insonga xos xususiyatlarni ko'chirish) san'ati vositasida botiniy-ma'rifikat ma'nolarga ishora qilishdir.

Qasidada mazkur ma'naviy san'at (tashxis)ni keng qo'llash orqali iloh va inson, Xoliq va maxluq, tabiat va shaxs birligiga alohida ahamiyat berilgan:

*Namud dil zi rayohin so'i favokeh mayl,
 Chu az sarobi suvar so'i lujjai ma'no...
 Libosi barg chu ashjori bog'ro po'shid,
 Shud az namoishi har yak chu gunbadi mino...
 Va lek anjumi sobit shuda favoqehi o',
 Ba burj shoxi savobit misoli pobarxo.*

Mazmuni: ko'ngil rayhonlardan mevali bog' tomon mayl ko'rsatdi, behisob suratlardan zebo shakllar esa sarobga aylanibdi. Barglar libosi bog' daraxtleri ustini yopdi. Har birining tovlanishidan feroza osmon shakli namoyon bo'ldi. Va lekin yulduzlar sobitlashganidek, holat mevali bog'da ko'rina boshladi. Yulduzlar burjda qo'nim topganidek, shoxlar ham oyog'ida turganday bo'ldi. (19-bet)

Mazkur baytlarda olam va odam sirlari tashxis san'ati asosida yonma-yon talqin etilgan. Tasvirlangan she'riy timsollar yorqinlik, jonlilik, jozibadorlik kasb etgan.

¹Alisher Navoiy. Ruh ul-quds. T.: O'zbekiston, 2002. 11-bet. (Bundan so'ng mazkur manbagaga murojaat qilganda sahifasini qavs ichida berish bilan kifoyalanamiz).

²Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jiddlik. 5-jild. Badoe' ul-vasat. T.: Fan, 1990. 58-bet.